

TILSHUNOSLIKNING LINGVOPOETIKA SOHASI RIVOJI HAMDA TILSHUNOS OLIMLARNING LINGVOPOETIKA TADQIQIDAGI IZLANISHLARI

Xolmatova Asalxon Qodirjon qizi

A R T I C L E I N F O.

Kalit so'zlar: Lingvopoetika, lingvistika, lingvopoetik tahlil, intertekstuallik, sintagmatik munosabat, paradigmatic munosabat, strukturalizm.

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada tilshunoslikning muhim yo'naliishlaridan biri bo'lgan lingvopoetika sohasi rivojiga hissa qo'shgan jahon hamda o'zbek tilshunoslari, ularning asarlari yoritilgan. Shuningdek tilshunos olimlarning lingvopoetika borasidagi fikrlaridan na'munalar keltirilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2023 LWAB.

Badiiy asar tilining lingvistik jihatdan tadqiq qilinishi bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Tilshunoslik sohasida yaqin vaqtlar ichida olib borilgan ko'plab tadqiqotlar aynan badiiy asar tilining leksik-semantik, morfologik, sintaktik, punktuasion, stilistik, pragmatik, kognitiv yo'naliishlar asosida olib borildi. Til ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida doimo qisqalik va osonlikka intiladi. Inson uchun qanday talaffuz qilish to'g'riliqidan ko'ra, ko'proq qanday talaffuz qilish qulay va osonligi muhimroq. Tildagi fonetik va leksik so'zlarni qo'llash bir qancha osonlikni va ravonlikni ta'minlaydi.

Adabiyotimizda iz qoldirgan har bir ijodkor asarlarining tilini o'rganish, birinchidan, adibning mahoratini o'rganish, shu bilan birga, tilimiz rivojiga uning asarlari tili ta'sirini, tadqiqotning esa tilshunosligimiz taraqqiyotiga qay darajada ta'sir ko'rsatayotganligini belgilash ehtiyojidan kelib chiqadi. Tabiiyki, badiiy asarni lingvopoetik tahlil qilishning bir qator tamoyillari mavjud. Badiiy matn lingvopoetikasi muammosini o'zbek tili materiallari asosida mufassal tadqiq etgan M.Yo'ldoshev lingvopoetik tahlilning quyidagi asosiy tamoyillarini ko'rsatadi:

- 1) shakl va mazmun birligi asosida yondashuv;
- 2) makon va zamon birligidan kelib chiqish;
- 3) umumxalq tili va adabiy til munosbati asosida baholash;
- 4) badiiy matnga badiiy-estetik yaxlitlik sifatida yondashuv;
- 5) badiiyatnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash;
- 6) badiiy matndagi eksplitsitlik va implitsitlik nisbatini aniqlash;
- 7) badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash.

Jahon adabiyotida ham lingvopoetika tadqiqi va rivojiga ulkan hissa qo'shgan adiblar ko'p. V.V. Vinogradov ilmiy ishlarida ham badiiy asar tilini o'rganish bo'yicha alohida filologik sohaning zarurati haqidagi qarashlarni ko'rish mumkin. U birinchilardan bo'lib, —lingvistik poetika terminini

qo'lladi va lingvopoetikaning maqsad va vazifalarini filologik sohaning bir tarmog'i sifatida shakllantirdi. Lingvopoetika metodologiyasiga o'z hissasini qo'shgan olimlardan yana biri – V. M. Jirmunskiy. Jirmunskiy badiiy asarni o'rganishda alohida usullarni ajratib ko'rsatish zaruratinini ta'kidlaydi. Badiiy asarning jonli birligida barcha texnikalar o'zaro ta'sirga ega bo'lib, bitta badiiy vazifaga bo'yusunadi, ya'nii hissiy ta'sirni kuchaytirish istagini bajaradi. Rossiya va Yevropada lingvopoetik tadqiqda ikkita tendensiya mavjud, ya'nii tizimli (struktur) – semiotik yondashuv va filologik yondashuv. Birinchi yondashuvga R.O.Yakobson, A. Greimas, R. Bart, S. Levin, M. Riffater, Yu.M. Lotman kabilar kirsa, ikkinchi yondashuvga V.V. Vinogradov, G.O. Vinokur, L.V. Sherba, B.V. Tomashevskii, A.M. Peshkovskii, O.S. Axanova, R.A. Budagov, E. Alarkos Lioraka, X.-A. Martinesa kabi tilshunos olimlar kiradi.

Tilshunoslikda keyingi yillarda lingvopoetika sohasi rivojlanib, bir qator yirik tadqiqotlar yuzaga keldi. Bu borada so'nggi yillarda olib borilgan ishlar sifatida V.Y.Zadornova hamda A.A.Lipgartning keng ko'lamli faoliyatlarini e'tirof etish mumkin. Lingvopoetika masalari yuzasidan muhim fikrlarni o'rtaga tashlab, ushbu yangi sohaning keng ildiz otishiga o'zining ko'plab asarlari bilan hissa qo'shgan V.Y.Zadornovaning ilmiy izlanishlarida lingvopoetika sohasining aniq predmeti, maqsadi va muammolari ochib beriladi. Tilshunos "Matnning lingvopoetik jihatdan o'rganilishi tilning u yoki bu birligini shunchaki aniqlashga qaratilgan emas, balki badiiy asar ko'rsatadigan estetik ta'sirni so'z yordamida izohlashga yo'naltirilgandir" deb ta'kidlaydi. "Lingvopoetika asoslari" nomli kitobi orqali ushbu sohaning muammolarini bir qadar ochib bergen A.A.Lipgart faoliyatida ham lingvopoetika masalalari chuqur tadqiq etilganini kuzatish mumkin. Uning fikricha, "lingvopoetika - bu filologiyaning bir bo'lmi bo'lib, lingvopoetika masalalari doirasida badiiy matnda uslubiy markerlangan birliklar qo'llanilishi, matnda ular estetik effekt berishga yo'naltirilgan bo'lishi hamda shu maqsadda badiiy matn mazmuniy strukturasida qo'llanilishi" mumkin. Tilshunoslik strukturalizmining boshlanishida tilshunoslik pozitivist fan sifatida qurilib, til fanining ishora tizimida aniq predmeti, usuli va vazifalariga ega bo'ldi. Til – paradigmatic munosabatlar mavjud bo'lgan va, aksincha, sintagmatik munosabatlar mavjudligidagi birliklar tizimlaridan tarkib topgan tilshunoslik obyektiqa aylandi. Tilni ta'riflashda model, nutq akti ishtirokchilaridan va uni ko'paytirish shartlaridan mustaqil lingvistik belgi kabi tushunchalar paydo bo'ldi. R.Yakobson tilni kod sifatida qo'llash va undan foydalanishning funksionalistik modelini taklif qildi. Uning fikricha, badiiy adabiyot, ayniqsa lirik tilning poetikasini shakllantirishda boy an'ana uchun boshlang'ich nuqtaga aylandi. "Lingvistik poetika" atamasi 1960 yillarda badiiy adabiyot tilini o'rganishga qiziqish paydo bo'lganidan keyin yuzaga keldi. Biroq, olimlar bu atamani turlicha tushunishgan. Xususan, V.V. Vinogradov undan badiiy adabiyot tili ekvivalenti sifatida foydalangan bo'lsa, V.P. Grigoriev ushbu atamani badiiy adabiyotning uslubi yoki tarkibiy poetika deb hisoblaydi. Buyuk rus tilshunos olimi V.V. Vinogradovning fikricha, lingvopoetik tadqiqotning vazifasi og'zaki – badiiy ijod ishlarida lingvistik birliklarning estetik funksiyasini o'rganishdir. Yozuvchi ijodi, uning mavzulari va obrazlari hamda dunyoqarashi til orqali ifoda etilganligi sababli ularni badiiy asar tilini tahlil qilish orqali idrok etish kerak. Bir-biriga bog'liq bo'lgan uchta: tarix, adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlarining o'zaro ta'siri sharoitida adabiy asarni to'liq va yetarli darajada anglash mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M. Yo'ldoshev. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili. –Toshkent: "Fan", 2007. –123 b.
2. Mirtojiev M.M. O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. –Toshkent, 2000. –260 b.
3. Lipgart A. A. Metodi lingvopoeticheskovo issledovaniya. –M, 1997. –128 b
4. V. V. Vinogradov. Stilistika, teoriya poeticheskoy rechi, poetika. –M, 1963. –253 b.
5. V. P. Grigoriyev. K probleme perifrazi. –M, 1974. –140 b.
6. V. Y. Zadornova. Vospriyatie i interpretatsiya xudojestvennovteksta. –M, 1980. –190 b.

7. Ch. O'ralova, S.Boymatov. Zamonaviy tilshunoslikda lingvopoetika tadqiqi. –15 b.
8. <http://uz.wikipedia.org/wiki/>
9. <http://uz.M.wikipedia.org/wiki/Tarjima>